





SAMARQAND VILOYATIDA INNOVATSION FAOLIYAT

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega. Samarqand viloyatida 2020-yilda 58 ta korxonalar va tashkilotlar birinchi marta innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlarni o'zlashtirgan bo'lib, ular tomonidan 2 516 527,1 mln. So'mlik innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarildi.

2020-yilda Samarqand viloyati bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar

	Jami	2020- yilda birinchi marta o'zlashtirgan	ulardan:	
			2017-2018-yillarda birinchi marta o'zlashtirgan	2017-2019-yillarda takomillashtirilgan
Korxonalar va tashkilotlar soni	242	58	79	105
Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz), mln.so'm	2 976 903,3	2 516 527,1	301 876,6	158 499,6
Bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz), mln.so'm	2 869 021,3	2 401 909,0	309 940,6	157 171,7




2020-yilda hududlar bo'yicha o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz)

	Jami	Ulardan:		
		2020-yilda birinchi marta o'zlashtirilganlari	2018-2019- yillarda birinchi marta o'zlashtirilganlari	2017-2019- yillarda takomillashtiril-ganlari
Samarqand viloyati	2 516 527,1	267 283,1	1 263 164,5	986 079,5
Samarqand sh.	1 131 873,3	167 689,8	274 030,3	690 153,2
Kattaqo'rg'on sh.	8 760,8	2 652,9	2,2	6 105,8
tumanlar:				
Oqdaryo	18 552,6	576,7	13 825,3	4 150,6
Bulung'ur	7 957,8		73,3	7 884,5
Jomboy	52 679,8	191,9	48 303,6	4 184,3
Ishtixon	7 396,8	23		7 373,8
Kattaqo'rg'on	7 813,6	393,4	193,4	7 226,7
Qo'shrabot	25 569,1	23 827,3	65,4	1 676,5
Narpay	8 761,9		593,2	8 168,7
Nurobod	54 502,7			54 502,7
Payariq	8 391,5		47,7	8 343,8
Pastdarg'om	96 639,3	39 692,9	1 681,6	55 264,8
Paxtachi	9,9	9,9		
Samarqand	96 029,4	12 696,8	54 296,5	29 036,2
Toyloq	867 441,5	2 956	853 816,3	10 669,1
Urgut	124 147,2	16 572,5	16 235,7	91 338,9



2020-yilda moliyalashtirish manbalari va hududlar bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar

Moliyalashtirish manbaalari bo'yicha innovatsiyalarga xarajatlarning eng katta qismini tashkilotning o'z mablag'lari hisobiga tog'ri keldi.

	Jami	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:				
		tashkilotning o'z mablag'lari	chet el investitsiyalari	ulardan chet el banklari kreditlari	tijorat banklarining kreditlari	ulardan imtiyozli shartlarda berilgan kreditlar
Samarqand viloyati	73 309,6	44 004,3	153,0	-	27 651,3	1 488,0



2020-yilda innovatsion faoliyat turlari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mln. so'm

	Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	Texnologik innovatsiyalarga jami (kapital va joriy) xarajatlar	Marketing innovatsiyalarga xarajatlar	Tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	Texnologik innovatsiya turlari bo'yicha xarajatlar	
					mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar	jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar
Samarqand viloyati	73 309,6	68 876,4	4 413,7	19,5	56 010,8	12 865,6
Samarqand sh.	8 318,6	4 256,9	4 042,2	19,5	2 466	1 790,9
Kattaqo'rg'on sh.	5 679,2	5 679,2			2 361,1	3 318
tumanlar:						
Oqdaryo	1 026,3	1 026,3			1 026,3	
Bulung'ur						
Jomboy	65,2	65,2			65,2	
Ishtixon	176	176			176	
Kattaqo'rg'on	1 459	1 459			1 459	
Qo'shrabot	1250,7	1 250,7			1 250,7	
Narpay						
Nurobod						
Payariq						
Pastdarg'om	2 919,6	2 919,6			2 919,1	0,5
Paxtachi	27,4	27,4			27,4	
Samarqand	7 877,9	7 506,4	371,5		7 486,4	20
Toyloq	2 660,9	2 660,9			2 660,9	
Urgut	41 848,9	41 848,9	-	-	34 112,7	7 736,3

2020- ilda hududlar bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni

	Innovatsiya joriy qilgan tashkilotlar soni	Jami joriy qilingan innovatsiyalar
Samarqand viloyati	52	204
Samarqand sh.	23	173
Kattaqo'rg'on sh.	4	5
tumanlar:		
Oqdaryo	1	1
Bulung'ur		
Jomboy	1	1
Ishtixon	1	1
Kattaqo'rg'on	3	3
Qo'shrabot	1	1
Narpay		
Nurobod		
Payariq		
Pastdarg'om	4	5
Paxtachi	1	1
Samarqand	7	7
Tayloq	1	1
Urgut	5	5

Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Yangi iste'molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni yetkazib berish – innovatsiyaga misol bo'la oladi.

Innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi.

“*Innovatsiya*” atamasi lotincha “*novatio*” so'zidan olingan bo'lib, “*yangilanish*” (yoki “*o'zgarish*”), “*in*” qo'shimchasi esa lotinchadan “*yo'nalishida*” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “*Innovatio*” ko'rinishida tarjima qilsak – “*o'zgarishlar yo'nalishida*” deb izohlanadi. **Innovation** tushunchasi birinchi bo'lib **XIX-asrning** ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi.



Innovatsiyaning 10 ta amri

1. Maqsadingizni ifodalang.
2. Jamoangizni ilhomlantiring.
3. Diqqatingizni xaridorga qarating.
4. Har kimga o'xshamang.
5. Hamma narsani shubha g'alviridan o'tkazib ko'ring.
6. Sinergiya* yarating.
7. Jarayonni yarating.
8. Har qanday xatarni oldindan ko'ra biling.
9. O'zgarishlarning yetakchisiga aylaning.
10. Tashabbuskor bo'ling.

** Sinergiya bu foydali o'zaro hamkorlik, uning samarasi har bir inson yakka holda qilgan harakatlari yig'indisini olib qaraganimizda yanada ko'proq hisoblanadi. "Sinergiya" so'zi grek tilidan tarjima qilinganida aynan "hamkorlik, o'zaro munosabat" ma'nolarini bildiradi.*



Samarqand viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Telefon: 0366-235-33-16

